

**BAXTIM SHU- O'ZBEKNING ZULFIYASIMAN**

**Malikova Gulmira Sayfullo qizi**

OMH fakulteti 102-B guruh talabasi

**Miltiqboyeva Dilfuza O'kanovna**

Ilmiy hodim: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim a'lochisi,

Boshlang'ich ta'limining fanlari iftixori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10927541>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolamda men xalqimiz ko'rki bo'lgan buyuk shoira vatanimiz iftixori Zulfiyaxonim uning qilgan ishlari, hayot va ijodi, bizga qoldirgan abadiy merosi, haligacha o'z qiymatini yo'qotmagan she'rlari ularni hozirgacha qo'shiq qilib kulanishi, shoiraning o'ziga bo'lgan ishonch va qatiyati undagi vatan tuyg'usi, qalbidagi o'chmas jarohatlari, sog'inch istiroblarini she'rlarda qanday ifodalashi haqida so'z yuritsam bejiz emas.

**Tayanch so'zlar:** Zulfiyaxonim, vatanparvarlik, vatan iftixori, vatan tuyg'usi, sadoqatlilik vatanga bo'lgan muhabbat, sog'inch istiroblari orqali bitilgan she'rlar, ishonch, sadoqat, qat'iyatlik, she'rlar merosi.

**THIS IS MY HAPPINESS - I AM THE ZULFIYA OF UZBEK**

**Abstract.** In this article, I will describe the great poet Zulfiyakhanim, the pride of our country, her work, her life and work, her eternal legacy, her poems that have not lost their value, and the fact that they are still sung and laughed at. It is not in vain that I talk about how he expresses his self-confidence and determination, the feeling of his homeland, his indelible wounds in his heart, and his longing aspirations in his poems.

**Key words:** Zulfiyakhanim, patriotism, pride of the country, feeling of the country, loyalty through love for the country, nostalgia Completed poems, trust, loyalty, determination, heritage of poems.

**ЭТО МОЕ СЧАСТЬЕ - Я ЗУЛЬФИЯ УЗБЕКА**

**Аннотация.** В этой статье я опишу великую поэтессу Зулфияханум, гордость нашей страны, ее творчество, ее жизнь и творчество, ее вечное наследие, ее стихи, не потерявшие своей ценности, и то, что их до сих пор поют и Я не зря говорю о том, как он выражает в своих стихах свою самоуверенность и решительность, чувство родины, свои неизгладимые раны в сердце, свои тоски.

**Ключевые слова:** Зулфияханум, патриотизм, гордость за страну, чувство страны, верность через любовь к Родине, ностальгия, Законченные стихи, доверие, верность, решительность, стихотворное наследие.

O'zbek xalqining sevimli shoirasi Zulfiya hayoti va ijodi hamda uning eng mashhur she'rlari haqida gaplashamiz. Zulfiya haqida ko'plab insonlar ma'lum qadar bilimga va ko'rnikmalarga ega deb o'ylayman. U kishining hayot va ijodiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak.



## **KIRISH**

Zulfiya ijodi, u yaratgan poetik asarlar hozirgi o'zbek she'riyatida muayyan ahamiyatga molikdir. Shoirasi Zulfiya ijodida xotin-qizlar mavzusining ko'p jihatlari teran yoritilishi, sevgi va hijron motivlarining haqqoniy badiiy tadqiq etilishi, tinchlik, xalqlar do'stligi g'oyalarining ancha tasirchan tarannum etilishi tahsinga sazovor. Ma'lumki, Zulfiya tomonidan yaratilgan asarlarida realistik tasvir tamoyillari kuchayganligi hamda poetik obrazlar olami kengayganligini ko'rsatadi. O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolaridan biri san'atkorning o'ziga xos, betakror badiiy olamini o'rganish bo'lib, bu masalaning teran atroflicha tadqiq qilinishi yozuvchining individual mahoratini ko'rsatishga, uning adabiyotimiz taraqqiyotidagi o'rnini belgilashga xizmat qiladi. Zulfiyaning poetik fikrlash tarzini jiddiy o'rganish, uning asarlaridagi obraz va obrazlilikning tabiati, xarakterini yana ham to'laroq ochish o'zbek she'riyatidagi katta bir turkum asarlar mohiyatini tushunishga imkon beradi.

### ***Zulfiya tarjimai holi:***

Zulfiya Isroilova 1915-yil 1-mart kuni Toshkentning O'qchi mahallasida hunarmand-ishchilar oilasida tavallud topgan. She'rga, so'zga, adabiyotga muhabbat unda bolaligida o'z oilasidagi muhit sababli paydo bo'lgan bo'lsa ajab emas. Ayniqsa, bunda onasi Xadichabegimning roli katta:

*Onamning qanchadan-qancha qo'shiq va afsonalarni bilishiga aqlimiz bovar qilmasdi. Bu sehrli afsona va dostonlar bizga benihoya huzur bag'ishlar, o'ziga rom qilib olar, har safar yangi jilva kasb etar edi. Hozirgidek charog'on davrda yashasa, onam yo shoira, yo olima bo'lardi. Shunga aminmanki, mo'jizalar yaratishga qodir, jahonni ko'zga keng ochuvchi, insonni go'zallik sari yetaklovchi so'zga shaydolik hissini mening qalbimda maktab ko'rmagan ana shu onam uyg'otgandi,* – deb yozadi Zulfiya o'zining tarjimai holida.

O'rta maktab va ayollar pedagogik bilim yurtini a'lo baholarga tugatgan Zulfiya respublikaning turli gazeta jurnallarida faoliyat yuritadi. Ilk she'ri "Men ish qizi" nomi bilan 1931-yili "Ishchi" gazetasida chop etiladi. Havaskor shoironing bu kabi ilk she'rlari "Yangi yo'l" jurnali, "Qizil O'zbekiston", "Yosh leninchi" gazetalarida chop etiladi.

1932 yil 17 yoshida ilk she'riy to'plami "Hayot varaqalari" nomi bilan chop etiladi. Ular asosan yoshlik, muhabbat, inson qalbi haqida edi. 1938-yillarda u turli yirik nashriyotlarda, gazeta-jurnallarda faoliyat yuritadi, turli respublika va respublikalararo tashkilotlariga a'zo bo'ladi.

Ayollar bilim yurtini tamomlagandan so'ng, 1935-yilda Zulfiya O'zbekiston fanlar qo'mitasi qoshidagi Til va adabiyot instituti aspiranturasiga o'qishga kiradi. Aynan shu paytlar institutda Hamid Olimjon ham faoliyat yuritir edi. Keyinchalik o'qituvchi Hamid Olimjon va talaba Zulfiya o'rtasidagi iliq munosabatlar muhabbatga aylanib, 1935-yilning 23-iyul kuni ikkisi oila quradi.

Zulfiya 1941-1950 yillarda O'zbekiston davlat nashriyotida bo'lim mudiri, 1950 – 53-yillarda "Saodat" jurnalida bo'lim mudiri, va keyinchalik bosh muharrir bo'lib faoliyat yuritadi. Ikkinchi Jahon urushi boshlanganda, Zulfiya ham ijodkorlar do'stlari safida turib urushning birinchi oylaridayoq biri otasini, biri o'g'lini, biri og'a-inisini, biri sevimli yorini frontga kuzatib, ular o'rnida kunni tunga ulab mehnat qilayotgan o'zbek ayollarining lirik obrazini yaratishga kirishadi. Shoironing 1942-yil kuzida yozilgan „Hijron“ sarlavhali she'rida hijronning achchiq damlarida orzu-umidini so'ndirmagan yosh kelin obrazini ko'rish mumkin:

*... Yorim, sevar yorim jo'nadi jangga,  
Mening yuragimga tushdi hijron-dog'.  
Men sevgan dildorningsevgan yurti bor,  
Ishq doim erk uchun hijronga rozi.  
Bu hijron mangumas, visoli ham bor –  
Qahraton qishlarning bo'lganday yozi.*

Shoironing shoir Hamid Olimjon xotirasiga bag'ishlab yaratgan "Hayot jilosi", "O'rik gullaganda", "Xayollar", "Sog'inish" va boshqa to'plamlaridan joy olgan she'rlari tuyg'ular, falsafiy umumlashmalar hayotga muhabbat ruhi bilan sug'orilgan she'rlar turkumiga kiradi.

**Zulfiya she'rlari:**

1944 yil turmush o'rtog'i Hamid Olimjon avtohalokatda vafot etadi. Shoiraning shoir Hamid Olimjon xotirasiga bag'ishlab yaratgan "Hayot jilosi", "O'rik gullaganda", "Xayollar", "Sog'inish" va boshqa to'plamlaridan joy olgan she'rlari tuyg'ular, falsafiy umumlashmalar hayotga muhabbat ruhi bilan sug'orilgan she'rlar turkumiga kiradi.

Zulfiyaning 1947-yilda yozilgan „Bahor keldi seni so'roqlab“ she'ri insoniy muhabbatni haqqoniy tasvirlovchi badiiy pishiq, ta'sir kuchi g'oyat o'tkir she'r bo'lib, bahor kechalarida lirik qahramonning bedor qalbini qiynayotgan hijron nidosidir.



*Bahor keldi seni so'roqlab  
Salqin saharlarda, bodom gulida,  
Binafsha labida, yarlarda bahor.  
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,  
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor.  
Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni,  
O'rik gullarining eding maftuni.  
Har uyg'ongan kurtak, hayot bergan kabi  
Ko'zlaringga surtib o'parding uni.  
Mana qimmatligim, yana bahor kelib,  
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.  
Qishning yoqasidan tutib so'radi seni,*

*Ul ham yosh to'kdi-yu, chekildi nari.*  
*Seni izlar ekan, bo'lib shabboda,*  
*Sen yurgan bog'larni qidirib chiqdi.*  
*Yozib ko'rsatay deb husn-ko'rkini,*  
*Yashil qirg'oqlarni qidirib chiqdi.*  
*Topmay sabri tugab bo'ron bo'ldi-yu,*  
*Jarliklarga olib ketdi boshini.*  
*Farhod tog'laridan daraging izlab,*  
*Soylarga qulatdi tog'ning toshini.*  
*So'ngra jilo bo'lib kirdi yotog'imga,*  
*Hulkar va Omonning o'pdi yuzidan.*  
*Singib yosh kuydirgan zafar yonog'imga*  
*Sekin xabar berdi menga o'zidan.*

Bu ajoyib she'r haligacha o'z qiymatini yo'qotmagan. Uni hozirgi kunda qo'shiq sifatida kuylashadi.

1950-yillarning yarmida Zulfiya Osiyo va Afrika yozuvchilarining tinchlik va xalqaro birdamlik shiori ostida o'tgan harakatida faol qatnashib, ko'plab mamlakatlarda bo'ladi. Hindiston, Misr, Yaponiya kabi mamlakatlari qilgan sayohati shoirada chuqur iz qoldiradi. "Mushoira", "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush", "Qozog'iston o'lanlari", "Men chizolmagan surat" singari she'rlari Zulfiyaga shuhrat keltirdi.

*Men o'tgan umrimga achinmay qo'ydim...*  
*Hayot kitobimni bexos varaqlab,*  
*Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim.*  
*Tabassum o'rnida kuldim charaqlab,*  
*Suyish kerak bo'lsa — telbacha suydim.*  
*Kiyganim ipakmi, chitmi yo kimxob,*  
*Yurak boyligidan qilmabman parvo.*  
*Meni og'ushlagan hayot naq oftob,*  
*Yangi qo'shiq talab unda har saboh.*  
*Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim,*  
*Hech kimda ko'rmayin umrimga o'xshash:*  
*Suydim,*  
*Erkalandim,*  
*Ayrildim,*

*Kuydim,*

*Izzat nima — bildim.*

*Shu-da bir yashash!..*

Zulfiya she'rlarida tasvir etilayotgan hayot ko'lami kengayib, ijodiga xorijiy xalqlar hayoti manzaralari ham kirib keldi. 70-yil lardan boshlab uning ijodidagi milliy hayot tasvirida yangi ranglar kamalagi paydo bo'ldi, haqqoniylik va his-hayajon kuchaydi. „O'ylar“ (1965) she'riy guldastasi bilan boshlangan voqelikni falsafiy idrok etish tamoyili „Visol“ (1972), „Yillar, yillar...“ (1975) she'riy kitoblarida davom etib, shoira ijodida chinakam badiiy yuksalish davri boshlanganini namoyish etdi. U yana doston janriga qaytib, ustoz Oybekning so'nggi safariga bag'ishlangan „Quyoshli qalam“ (1970) dostonini yaratdi. Shoira bolalarga bag'ishlangan „Lolaqizg'aldoq“, (1975) she'rlar turkumini ham yozdi.

Bundan tashqari, shoira A. S. Pushkin, M. Yu. Lermontov. N. A. Nekrasov, M. Voqif, L. Ukrainka, M. Dilboziy, S. Kaputikan, E. Ognsvet, Mustay Karim, Amrita Pritam, E. Bagranalarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.



Zulfiya 1968-yilda Hindistonning Javoharlal Neru, 1971-yilda xalqaro „Nilufar“ hamda 1970-yilda Hamza nomidagi O'zbekiston davlat mukofoti sohibasi bo'lgan. Shuningdek, Bolgariyaning „Kirill va Mefodiy“ ordeniga sazovor bo'lgan.

2017 yilning 3-noyabr kuni Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan atoqli va iste'dodli shoirlar Hamid Olimjon va Zulfiyaning xotirasini abadiylashtirish maqsadida Jizzax shahridagi 1902-yilda qurilgan „Xo'ja Nuriddin“ madrasasi qayta rekonstruksiya qilinib, Hamid Olimjon va

Zulfiya muzeyi tashkil etilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan viloyatda Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi yaratilgan.

Bundan tashqari Hamid Olimjon va Zulfiya hayotiga bag‘ishlab O‘zbekiston Kinematografiya agentligining buyurtmasiga binoan 2022-yilda “Muhabbat bahori” badiiy filmi suratga olingan. Unda shoira obrazini aktrisa Shahnoza Hojimurodova, Hamid Olimjon obrazini esa aktor Hamza Hasanov gavdalantirgan.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat mukofotlaridan biri. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta’ sis etish bo‘yicha takliflarni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” 1999-yil 10-iyundagi farmoniga binoan ta’ sis qilingan. Mukofot 25 yoshgacha bo‘lgan iqtidorli qizlarga adabiyot, madaniyat, san’at, fan, ta’lim sohalaridagi alohida yutuqlari uchun beriladi. Mukofot Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining ikki nafar vakillariga bir yilda jami 28 ta beriladi. Pul mukofoti eng kam oylik ish haqining 50 baravari miqdorini tashkil etadi. Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibalari bo‘lgan maktab, litsey, kollej o‘quvchilari tanlagan yo‘nalishlari bo‘yicha oliy o‘quv yurtlariga imtihonsiz qabul qilinadi. Mukofot O‘zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo‘mitasining raisi rahbarlik qiladigan komissiya xulosalari asosida Vazirlar Mahkamasi qarori bilan har yili 8-mart — Xotin-qizlar kuni bayrami arafasida tantanali ravishda topshiriladi.

So‘nggi yillarda Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga talabgor qizlar yo‘nalishlari ko‘paytirilmoqda. Jumladan, davlat mukofotini axborot texnologiyalari yo‘nalishida alohida yutuqlarga erishgan qizlarga ham berish rejalashtirilmoqda

### **MUHOKAMA**

E’tibor berilsa, XX asr o‘zbek poeziyasida jahon she’riy maktablarining o‘rni va ta’siri beqiyos. Bular adabiy aloqalarning mustahkamlanishida yorqin namoyon bo‘lgan. Shoira go‘zal hayotning muayyan tomonini badiiy tadqiq qilar ekan, u asosiy e’tiborini inson qalbida kechayotgan ziddiyatlar, tuyg‘ular tovlanishini ifodalashga qaratadi. U inson ruhiy olamini rang-barang ko‘rinish vaziyatlarda badiiy tadqiq etib, shu orqali uning yaratuvchilik, bunyodkorlik hamda borliqdagi barcha sodir bo‘lgan, bo‘layotgan voqealarga mas’uliyat hissini oshirishga intiladi. Shu jihatlari bilan shoira Zulfiya H.Olimjon she’rlaridagi ba’zi poetik ifodalarni lirik tasvir yo‘nalishiga singdirib Yuboradi:

*Kecha jimjit: ko‘p go‘zal kecha,*

*Qaraysanu suqing kiradi.*

*Yonadi gul, jilmayar g‘uncha,*

*Ellar g‘ir-g‘ir esib turadi.*

Tabiat go‘zalliklaridan behad chuqur hayajonga tushush, o‘z tuyg‘ularini tabiatdagi tovlanishlar surati orqali berish Zulfiya ijodiga xos xususiyatlardan biridir. Shoiraning hayot haqidagi falsafiy fikrlari lirik kechinma yo‘nalishi hamda tabiat tasviri bilan hamohang teranlashib, tiniqlashib boradi. Fikr bilan tuyg‘u uyg‘unligi inson umrining abadiylikka daxldorligi mohiyatini ochadi:

*Hijroning qalbimda, sozing qo‘limda,  
Hayotni kuylayman, chekinar alamyu  
Tunlar tushumdasan, kunduz yodimda,  
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham.*

Zulfiya mahoratidagi bunday o‘ziga xoslik uning tasvir ob’ektini yangicha badiiy tadqiq etishi, u haqida yangicha fikrlashga intilishi natijasidir. Shuning uchun ham Zulfiya an’anaviy obrazlar qa’ridan yangi-yangi ma’nolar izdaydi. Shoira Zulfiya ijodining poetik olami va estetik qarashlari ham mazkur jarayonning bir halqasini tashkil etadi. Negaki, ijodkor o‘z davrining komil ffarzandi. O‘zi yashab turgan ijodiy muhit suvratidan estetik qarashlari shakllanadi. Ustozlari boshlab bergan salmoqli ishlar, keyingi avlod nazaridan izsiz o‘tmaydi.

Shuningdek, shoira Zulfiya ijodida ayolga extirom, onaga muhabbat mavzusi alohida o‘ringa ega. Zulfiya ijodining turli davrlarida bu mavzuga qayta-qayta murojaat etgan. Natijada shoiraning “Ona”, “Ona ko‘ksi”, “Mening mehribon onaginam”, “Ona ko‘ksi” singari she’rlari vujudga kelgan. Shoiraning:

*Onam! Sening issiq, aziz joningni,  
Zarradek chog‘imdan boshlab bilaman.  
O‘zim zarra-yu, lekin qoningni,  
Yangilab jismingdan o‘zni o‘zganman.  
Sen gul juvon hali mendan bexabar,  
Bulutday go‘daklar tortdi havasing.  
Endi men sen desam qaynoq, muattar,*

Hovrin his qilaman iliq nafasing... Ona va farzand muhabbatini, ayollikning botiniy va zohiriy qiyofasini ochib beruvchi lirik kechinmalar shoira ijodida talaygina.

#### **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Zulfiya lirikasi teran tafakkur va jo‘shqin hissiyot vobastaligidan hosil bo‘lgan she’riyatdir. Shoira lirik qahramoni ko‘pda yuksak intellekt sohibasi ekanligi sezilib turadi. U biroz o‘ychan, ba‘zan falsafiy, ba‘zida esa jiddiy va ta’sirchan. Shoira ma’naviy-ruhiy izlanishlarida, poetik timsol yaratish jarayonida his-tuyg‘ular manzarasi, kechinma tarangligi, o‘tkir dramatik vaziyat va kolliziyalar bo‘rtib turadi. Unda makon va zamon



chegarasining qamrovlari keng, o‘tmish, bugun va kelajak voqeligi inson taqdiri, ertasi bilan esh tasvirlanadi.

#### REFERENCES

1. Karimov N.Zulfiya. Ma’rifiy biografik asar. – T., G’afur G’ulom nomidagi
2. Nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
3. Umurova G. (2014). Shoira Zulfiyaning badiiy olami. Monografiya. -Toshkent,
4. “Navro‘z”, 156 b.
5. Umurova G. (2018). Zulfiya lirikasida tuyg‘ular tadriji // Xorijiy filologiya. –Samarqand,
- 4(4), B.83-88
6. Umurova G. (2017). Zulfiya badiiy mahoratining ba’zi qirralari //O‘zbek tili va Adabiyoti. – Toshkent, 5(5), B.85-90.
7. Zulfiya. Adabiy o‘ylar. – Toshkent: “Fan”, 1985.
8. Zulfiya. Tong bilan shom aro. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2006. 168-b.
9. Mahmudova D. Halima.esse-qissa. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2016.
10. G’afurov I. Zulfiya siymosi // Sharq yulduzi, 2015, №1. – B. 114-120.
11. SHarafiddinov O. Sizni sog‘indim, Zulfiya opa! – Ijodni anglash baxti. – T., Sharq, 2004.
12. Hojjeva O. To‘rt tanho.Toshkent, “O‘zbekiston”, 2013